# Urmon.gov.uz - veb-saytidan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnoma

## Bosh sahifa

Asosiy sahifaga kirgandan so‘ng foydalanuvchi saytdagi mavjud bo‘limlardan o‘zini qiziqtirgan barcha ma’lumotlarga kirishi, o‘zini qiziqtirgan savollarga javob olishi mumkin.




***1-rasm. Asosiy sahifa***

**Veb sayt asosiy sahifasidagi bo‘limlar** - sahifaning yuqori qismida joylashgan bo‘lib foydalanuvchi bo‘lim sarlavhasiga sichqoncha tugamachasini olib kelish orqali ochishi va bo‘limning barcha bo‘linmalarini ko‘rishi mumkin.Foydalanuvchiga qulaylik yaratish uchun yuqori oynada tezkor kirish uchun quyidagi bo‘limlar mavjud:

## 1. Agentlik haqida

- 1.1. Faoliyat
- 1.2. Tizim tashkilotlari
- 1.3. Ekoturism
- 1.4. Elektron hukumat
- 1.5. Ha’yat
- 1.6. Tarkibiy tuzulma
- 1.7. Markaziy apparat
- 1.8. Faoliyat ko‘rsatkichlari
- 1.9. Korrupsiyaga qarshi kurashish
- 1.10. Jamoatchilik kengashi
- 1.11. Rahbariyat

## 2. Interaktiv xizmatlar bo‘limi

Ushbu bo‘limda foydalanuvchilar o‘rmon xo‘jaligi tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar bilan tanishishi, murojaatlar tartibi va holati bilan tanishi, statistic hisobotlar bilan tanishish imkoniyatiga ega.




## 3. Hujjatlar bo‘limi

Ushbu bo‘limda foydalanuvchilar sohaga tegishli bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanish imkoniyatiga ega. Shuningdek, muhokamaga kiritilgan normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanishish imkoniyatiga ega.



## 4. Ochiqlik bo‘limi

Ushbu bo‘limda sohaga tegishli barcha ochiq ma’lumotlar joylashtirib boriladi.

## 5. Matbuot markazi bo‘limi

Ushbu bo‘limda sohaga tegishli barcha yangiliklar va tanlovlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar joylashtirib boriladi.

## 6. Ma’lumot bo‘limi

Turli hil yo‘nalishdagi eng muhim ma’lumotlar joylashtirilgan bo‘lim.




## 7. Budjet ochiqligi bo‘limi

Ushbu bo‘limda tegishli tartibga asosan budjet ochiqligi ma’lumotlari joylashtirib boriladi.

## 8. Bog‘lanish bo‘limi

Ushbu bo‘limda agentlik manzillari, ish tartibi, telefonlari, electron pochta, qatnovchi avtobus yo‘nalishlari, bekatlar ko‘rsatilgan.

**Asosiy sahifani pastki oynasida ishonch telefon xizmatini baholash funkciyasi mavjud, ushbu qatorda ishonch telefonini baholashingiz mumkin. Shuningdek, elektron xizmatlarga o‘tish oynasi mavjud.**



# VEB-SAYTDA FOYDALANILGAN ATAMALAR

| T/r | Atamalar | Izoh |
|---|---|---|
| 1. | **O‘rmonlar** | O‘rmonlar –keng ma’noda toza suv saqlovchi, tuproq va havodagi namlikni mo’tadillashatirib turuvchi, yog‘och, ikkilamchi mahsulotlar, mevalar, dorivor va ozuqa o‘simliklar beruvchi manbadir. |
| 2. | **Arboretum** | Botanikaga oid atama bo‘lib, lotincha arboretum so‘zdan olingan (ruscha - drevesniye nasajdeniya). Yer sharining turli mintaqalaridan keltirilgan daraxt-buta turlaridan barpo etilgan dendrologik bog‘ manosini bildiradi. |
| 3. | **Agrolesomelioratsiya** | (yunoncha agros — dala; ruscha les – o‘rmon; lotincha melioratio — takomillashtirish) qurg‘oqchilik, quruq issiq shamol, garmsel, tuproq deflyatsiyasi va qumlarni ko‘chishi tog‘larda tuproq eroziyasi, tog‘ yonbag‘irlarida ko‘chkilar va sel oqimlarini oldini olish hamda iqlimni hamda tuproq sharoitlarini yaxshilash maqsadida amalga oshiriladigan o‘rmonchilik, agrotexnik va gidrotexnik chora-tadbirlar majmuasi. |
| 4. | **Zirk** | forscha so‘z bo‘lib, qizil va achchiq mevali o‘simlik. Zirkni o‘zbek tilida “qaraqand” ham deb atashadi. Rus tilida barbaris deb nomlanadi.<br><br>Zirk - tog‘larda o‘sadigan ko‘p yillik tikanli buta va uning hosili zirkdoshlar oilasiga mansub dorivor va manzarali o‘simliklar bo‘lib, yer yuzining mo‘tadil iqlimli mintaqalarda tarqalgan.<br><br>Zirk mevasi va ildizida qon bosimini pasaytiruvchi “berberin” alkaloidi mavjud. Markaziy Osiyoda tarqalgan 8 ta zirk turidan 3 tasi O‘zbekiston florasida uchraydi.<br><br>Zirk mevasi sharbati qonni zaharli moddalardan tozalaydi, qon bosimini pasaytiradi hamda o‘tni haydaydi. |
| 5. | **Binar nomenklatura** | Lotincha so‘z bo‘lib, binarius — qo‘sh, qo‘shaloq — o‘simlik yoki hayvonning qo‘sh nom — turkum (hayvonlarda urug‘) va tur nomi bilan atalishi; qo‘sh ismlilik, o‘simliklarni ikki nom bilan atash tartibi. |
| 6. | **Rekreatsiya** | (lotincha recreatio “tiklanish”) aholining dam olishi uchun ekologik sharoitlarni yaratish turlari. Rekreatsion o‘rmon deganda tabiiy resurslarning bir qismi bo‘lgan va insonlarni mehnatga qobiliyati va sog‘lig‘ini tiklovchi, insonlarni dam olishi va xordiq chiqarishini ta’minlovchi o‘rmon tushuniladi. Ularning iqtisodiy samaradorligi juda yuqori. Mazkur atama o‘zbek tilida dam olish ma’nosini beradi. |
| 7. | **Bosket** | (fransuzcha Bosquet; italyancha. Boschetto — o‘rmoncha, daraxtzor) to‘g‘ri geometrik shakllga ega yopiq daraxtzorlardan iborat, tirik devor sifatida ekilgan daraxt va butalardan iborat landshaft kompozitsiyasi hisoblanadi. Bosket ichkarisida favvoralar, gulzor, yashil teatrlar joylashishi mumkin. |
| 8. | **Drenaj** | (fransuzcha drainage) – yer zaxini quritish va sizot suvlari sathini pasaytirish uchun ishlatiladigan zovurlar va trubalar tizimi. |

| | | |
|---|---|---|
| **9.** | **Mulcha** | inglizcha so‘z bo‘lib, mulch – “yumshoq” ma’nosini bildirsa-da, ayrim adabiyotlarda “qoplash” ma’nosida qo‘llaniladi. Tuproq yuzasini berkitish uchun ishlatiladigan mulchalar asosan turli materiallar, jumladan maydalangan torf, organik o‘g‘it, kompost, yog‘och qirindisi hamda somonlardan tayyorlanadi. |